



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-iyul)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent shahar korxonalari tomonidan 42,9 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 113,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (73,6 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 21,7 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 6,2 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 27,9 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 12,0 % ga o'sishi kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,5 trln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 19,8 % ni tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh 14,1 % ga, neft qazib olish 9,9 % ga, tabiiy gaz 0,4 % ga oshgan bo'lsa, gazli kondensat 2,4 % ga pasaygan.





Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-iyul	2021-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Neft, ming t.	344,8	379,0	34,2
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	20723,9	20802,9	79,0
Gaz kondensati, ming t.	443,8	433,1	-10,7
Chaqiq tosh, ming t.	263,5	300,6	37,1



Ishlab chiqarish sanoati


2021-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,6 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 73,6 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 9,2 % ni (2020-yilning yanvar-iyul oylarida 4,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali 15,0 % (17,3 %), o'rta-quyi texnologiyali 23,1 % (19,5 %) va quyi texnologiyali 26,3 % (29,1 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 24,4 % (2020-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,1 % (2020-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 151,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,6 % (2020-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,9 % (2020-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % (2020-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,5 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2021-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1637 ming dona trikotaj yoki to'qilgan tashqi kiyim (2020-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 95,1 % ga ko'paygan), 20,5 ming tn mis sim (72,1 %.), 23,6 ming tn paxta tolasi (71,6 %), 338,0 ming dona sovutgich va muzlatgichlar (44,3 %), tamaki mahsulotlari 991,8 mln dona (36,2%) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-iyul	2021-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oltin gugurt, tonna	162362,0	152721,0	-9641,0
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, tonna	8780,4	1225,1	-7555,3
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, tonna	10085,1	7665,2	-2419,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	50,1	23,5	-26,7
Sovutgich va muzlatgichlar, dona.	234189,0	337997,0	103808,0




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



2020-yil,
% da



2021-yil,
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,0 % ini) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 78,3 % ni tashkil qildi.







**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-iyul	2021-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	185,7	189,1	3,4
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	7960,4	8024,4	64,0
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm.</i>	661678,0	437286,0	-224392,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,7 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-iyul	2021-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	41,1	51,4	10,3
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	249,7	252,6	2,9
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	94,0	110,9	16,9


O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 1,1 % ga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 15,2 % ga pasayish kuzatildi.

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 25,0 % ga o'shish kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 16,7 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 20,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 38,9 % ni tashkil etdi.



2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021- yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 63,2 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,7 % (2020- yil yanvar-iyul oylarining mos davriga nisbatan 11,2 % ga o'sgan) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 22,2 % ni shuningdek, Olmazor tumani 11,3 % ni, Sirg'ali tumani 10,0 % ni, Uchtepa tumani 9,8 % ni, Bektemir tumani 9,7 % ni hamda Chilonzor tumani 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (153,6 %), Mirobod (132,4 %), Olmazor (129,7 %) hamda Bektemir tumanlarida (126,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021-yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	16 698,1	100,0	120,6
Uchtepa	2 955,0	9,8	110,6
Bektemir	2 897,1	9,7	126,0
Yunusobod	2 240,0	4,2	91,2
Mirzo Ulug'bek	2 558,8	5,4	113,7
Mirobod	3 619,6	6,9	132,4
Shayxontohur	2 741,0	2,6	88,8
Olmazor	2 872,5	11,3	129,7
Sirg'ali	3 248,9	10,0	114,3
Yakkasaroy	2 529,7	5,6	116,9
Yashnobod	12 950,9	22,2	153,6
Yangihayot	1 136,9	3,4	93,3
Chilonzor	3 153,8	8,9	104,1

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib, 24,7 %, shuningdek, Olmazor 14,7 % ni, Sirg'ali tumani 14,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy (152,3 %), Bektemir (131,1 %), Olmazor (107,1 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	5 366,8	100,0	101,4
Uchtepa	368,0	6,9	94,9
Bektemir	1 328,0	24,7	131,1
Yunusobod	334,4	6,2	89,1
Mirzo Ulug'bek	175,1	3,3	85,8
Mirobod	138,9	2,6	70,1
Shayxontohur	121,0	2,3	67,1
Olmazor	790,7	14,7	107,1
Sirg'ali	775,3	14,4	105,4
Yakkasaroy	310,9	5,8	152,3
Yashnobod	364,4	6,8	66,8
Yangihayot	203,6	3,8	105,5
Chilonzor	456,4	8,5	88,3



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar-iyul oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	10 548,6	100,0	134,3
Uchtepa	1 263,6	12,0	116,2
Bektemir	297,6	2,8	107,4
Yunusobod	320,6	3,0	89,7
Mirzo Ulug'bek	723,0	6,9	123,4
Mirobod	1 018,7	9,7	150,6
Shayxontohur	262,4	2,5	101,7
Olmazor	1 091,4	10,3	153,2
Sirg'ali	819,2	7,8	120,7
Yakkasaroy	632,0	6,0	104,9
Yashnobod	2 735,9	25,9	210,5
Yangihayot	360,0	3,4	87,6
Chilonzor	1 024,4	9,7	112,8

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 25,9 % ni, shuningdek, Uchtepa 12,0 % ni, Olmazor 10,3 % ni, Mirobod 9,7 % ni, Chilonzor 9,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod (210,5 %), Olmazor (153,2 %), Mirobod (150,6 %), Mirzo Ulug'bek (123,4 %) tumanlarida qayd etildi.




**Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2021- yil yanvar-iyul mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	42 904,2	113,1
Uchtepa	2 955,0	108,1
Bektemir	2 897,1	104,0
Yunusobod	2 240,0	84,4
Mirzo Ulug'bek	2 558,8	97,8
Mirobod	3 619,6	103,3
Shayxontohur	2 741,0	114,5
Olmazor	2 872,5	111,0
Sirg'ali	3 248,9	113,7
Yakkasaroy	2 529,7	115,4
Yashnobod	12 950,9	113,3
Yangihayot	1 136,9	101,2
Chilonzor	3 153,8	115,6



Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksida kamayish kuzatilmadi, lekin Yunusobod (2020-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 84,4 %), Mirzo Ulug'bek (97,8 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligini izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (153,6 %), Mirobod (132,4 %), Olmazor (129,7 %) hamda Bektemir tumanlarida (126,0 %) qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 30,2 %), Mirobod (8,4 %), Sirg'ali (7,6 %), Chilonzor (7,4 %) hamda Uchtepa (6,9 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangihayot (2,6 %) hamda Yunusobod (5,2 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2021-yil yanvar-iyul oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 29,2 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (70,2 %)), Chilonzor tumanida (57,3 %), Yunusobod (51,7 %), Yangiheyot tumanida (48,9 %), Sirgʻali (48,8 %), Yakkasaroy (35,8 %), Mirzo Ulugʻbek (33,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (14,0 %), Mirobod (18,7 %) va Shayxontohur (20,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,6 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,3 %) Olmazor tumaniga, 2,0 mingtasi (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,7 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (9,0 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,3 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021-yilning yanvar-iyul oylarida shaharda 1 325 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 156 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 11,8 %) Chilonzor tumanida, 143 tasi (10,8 %) Olmazor tumanida, 134 tasi (10,1 %) Shayxontohur tumanida, 129 tasi (9,7 %) Yunusobod tumanida, 125 tasi (9,4 %) Yashnobod tumanida, hamda 123 tasi (9,3 %) Uchtepa tumanida tashkil etildi.



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonolari
(2021- yil 1-avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonolari joylashgan hududlar Olmazor (2 201 ta), Chilonzor (2 041 ta), Uchtepa (1 929 ta), Yunusobod (1 806 ta) hamda Shayxontohur (1 485 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonolari bo'lgan tumanlar (1-avgust holatiga ko'ra)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonolari bo'lgan tumanlar (1-avgust holatiga ko'ra)



2021-yilning 1-avgust holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonolari joylashgan hududlar esa Bektemir (535 ta), Yangihayot (587 ta), Mirobod (956 ta), Sirg'ali (1 035 ta), Yakkasaroy (1 263 ta), Yashnobod (1 339 ta) tumanlarida qayd etildi.